

O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligining
Yoshlarga oid davlat
siyosatini qo'llab-
quvvatlash jamg'armasi
mablag'larini shakllantirish
va ulardan foydalanish
tartibi bo'yicha
USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent – 2025

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining
Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi
mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi
bo'yicha uslubiy qo'llanma**T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi, 2025-yil. – 17 bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini huquqiy va tashkiliy jihatdan izohlash, shuningdek, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu qo'llanmada Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari, mablag'lar yo'naltiriladigan asosiy yo'nalishlar, ularni taqsimlash tartibi, shuningdek, mablag'lardan foydalanish ustidan nazorat mexanizmlari yuzasidan batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, qo'llanma doirasida Jamg'arma mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq asosiy huquqiy, tashkiliy va moliyaviy mexanizmlarning tahlili va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar.....	4
Kirish.....	5
Umumiy qoidalar.....	6
Jamg'arma mablag'larini shakllantirish.....	7
Jamg'arma mablag'laridan foydalanish tartibi.....	8
Jamg'arma mablag'laridan foydalanilishi yuzasidan hisobotlar taqdim etish, nazorat va javobgarlik.....	15
Yakunlovchi qoidalar.....	16

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi bo'yicha uslubiy qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni	
Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 400-son "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-oktabrdagi 617-son "Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida **yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, kasb-hunar o'rganishi, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi hamda bandligini ta'minlash** davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Shu nuqtai nazardan, davlat budjeti va boshqa manbalardan moliyalashtiriladigan Jamg'arma mablag'laridan maqsadli, samarali va shaffof foydalanish yoshlar bilan ishlash tizimining eng muhim halqasidir.

Qo'llanmada **Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari, mablag'larni ajratish tartibi, ustuvor yo'nalishlar, ariza berish va tanlov jarayonlari, ajratilgan mablag'lardan foydalanish, ularni monitoring qilish va nazorat qilish mexanizmlari** batafsil bayon etilgan. Shuningdek, unda manfaatdor tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, hujjatlar bilan ishlashda yo'l qo'yiladigan asosiy xatolar va ularni oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma Yoshlar ishlari agentligi xodimlari, tuman (shahar) yoshlar yetakchilari, tegishli budget tashkilotlari va notijorat tuzilmalar vakillari uchun mo'ljallangan bo'lib, ular faoliyatida moliyaviy resurslardan oqilona va qonunchilikka muvofiq foydalanish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

UMUMIY QOIDALAR

Quyidagilar kalendar rejani shakllantirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:



Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining (keyingi o'rinlarda — Agentlik) **yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan budjetdan tashqari jamg'armasi** hisoblanadi;

Jamg'arma mablag'lari Agentlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yoshlar ishlari boshqarmalari va tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limlari (keyingi o'rinlarda — hududiy bo'linmalari) hamda Agentlik huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti (keyingi o'rinlarda — Institut) uchun **Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida alohida ochiladigan shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida yuritiladi.**



JAMG'ARMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH

QUYIDAGILAR JAMG'ARMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH MANBALARI HISOBLANADI:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan **Agentlik orqali ajratiladigan mablag'lar**;

Agentlik va uning hududiy bo'linmalari huzuridagi korxona, muassasa va tashkilotlar ixtiyorida **solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qoladigan sof foydaning bir qismi**;

Jismoniy va yuridik shaxslarning **homiyluk xayriyalari**, xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari, vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklarining **depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar**;

Qonunchilik hujjatlari bilan **taqiqlanmagan boshqa manbalar**.

JAMG'ARMA MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH TARTIBI

Jamg'armaning mablag'laridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:



Yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari **surilgan beshta muhim tashabbusni keng joriy etish**ga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirish;



“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning xorijiy tillar va umumta’lim fanlari bo’yicha nodavlat ta’lim tashkilotlarida **o’qish xarajatlarining 50 foizi (biroq, bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravarigacha)** hamda ular bo’yicha milliy sertifikatlar olish uchun o’tkaziladigan imtihonlarni topshirish xarajatlarini kompensatsiya qilish;

“Mehribonlik” uylari tarbiyalanuvchilari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning **haydovchilik kurslarida o’qish xarajatlarini (bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha)** va **safarbarlik chaqiruvi rezervida xizmatni o’tash uchun to’lanadigan to’lovlarni** moliyalashtirish;



Xususiy korxona va tashkilotlarga ishga qabul qilingan hamda faoliyat boshlaganiga **6 oydan oshmagan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni qayta tayyorlov kurslarida o’qitish bilan bog’liq xarajatlarni (bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha)** mazkur xususiy korxona va tashkilotlarga kompensatsiya sifatida qoplab berish;

AT “Xalq banki”, AT “Aloqa bank” va “Mikrokreditbank” ATB tomonidan “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o’quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan va sertifikat olgan, shuningdek, **xorijiy tilni bilish bo’yicha S1 darajasidagi sertifikatga ega bo’lgan yoshlarga** kompyuter (shu jumladan, O’zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmagan) xaridlari uchun **bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravaridan ko’p bo’lmagan miqdorda** ajratilgan iste’mol kreditlari bo’yicha foiz to’lovlarini kompensatsiya qilish;





“Mahalla yettiligi” tavsiyasiga asosan shakllantiriladigan ro'yxatga kiritilgan hamda **elektron onlayn-auksion savdolari orqali** dehqon xo'jaligini yuritish uchun yer maydonlarini ijaraga olgan yoshlarga mini-texnika, urug' va ko'chat xarid qilish uchun bir yillik kafillik taqdim

etish;

Qonunchilik hujjatlarida belgilangan **Agentlik, uning hududiy bo'linmalari va Institutning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari** doirasidagi chora-tadbirlarni moliyalashtirish;



YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI



Agentlik direktorining buyrug'iga asosan faol yoki **ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashga doir xarajatlarni** amalga oshirish;

Agentlik, uning hududiy bo'linmalari va Institutning bino va inshootlarini, hududlardagi yoshlar obyektlarini (ta'lim, madaniyat, san'at, sport obyektlari, yoshlar markazlari va boshqalar) qurish, kapital va joriy (ta'lim, madaniyat, san'at, sport obyektlari, yoshlar markazlari



Ta'mirlash hamda inventarlar, mebel, kompyuter texnikasini va boshqa uskunalar bilan jihozlash hamda sohaga **zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini** joriy etish;

Mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni **ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish;**



Yoshlarga oid dasturlar, loyihalar, tanlovlar va boshqa tadbirlar uchun **nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shu jumladan, ommaviy axborot vositalariga ijtimoiy buyurtma** ajratish;

Hududlarda **band bo'lmagan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularning bandligini ta'minlash maqsadida** kasb-hunarga o'rgatish va ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish tadbirlarini moliyalashtirish;



Vazirlar Mahkamasining "Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish tartibini joriy etish to'g'risida" 2021-yil 13-apreldagi 209-son qaroriga muvofiq **yoshlarga o'qish va xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha eng yuqori ball to'plagan iqtidorli yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini qoplab berish;**

Xalqaro fan olimpiadalarida o'quvchi yoshlarning yuqori darajada tayyorgarlik **ko'rishlari uchun o'quv bazasi tashkil etish, respublika va xorijiy malakali mutaxassislar jalb qilish hamda ular uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash** xarajatlarini qoplash;



X

BILIB OLING!

JAMG'ARMA MABLAG'LARIDAN ,SHUNINGDEK, QUYIDAGI MAQSADLARDA FOYDALANILADI:



Agentlikka yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishga **mahalliy va xorijiy ilmiy muassasalar, olim va mutaxassislarni, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni** belgilangan tartibda shartnoma asosida jalb qilish;



Agentlik, uning hududiy bo'linmalari va Institut vazifalari va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni moliyalashtirish;



Yoshlarni zamonaviy kasbga o'rgatish, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha **6 oygacha muddatli o'quv kurslari uchun har oyda BHMning 4 baravarigacha miqdorda** subsidiya ajratish;



Ijtimoiy himoyaga muhtoj iqtidorli yoshlarning **ilm-fan, sport, san'at va madaniyat yo'nalishlaridagi 6 oygacha muddatli o'quv kurslari uchun har oyda BHMning 1 baravarigacha** yoshlarni ta'lim, madaniyat va san'at, sport, axborot texnologiyalari va fanlarni o'qitishga ixtisoslashgan o'quv markazlarining uch oy muddatgacha noturar joy ijara xarajatlari uchun BHMning 50 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish;



“Xorijdagi yoshlar balansi”ni shakllantirish va yuritish, xorijda sayyor qabullarni o‘tkazish vaqtida aniqlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan yoshlarning muammolari va ehtiyojlarini hal qilish bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirish;



Har chorakda mahallada yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda yuqori natijadorlikka erishayotgan mamlakat bo‘yicha **eng ilg‘or 100 nafar mahalladagi yoshlar yetakchilarini bir oylik ish haqiga teng miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan, shuningdek, faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, mahalladagi yoshlar yetakchilarini har chorak yakuni bo‘yicha oylik ish haqining 50 foizigacha miqdorda pul mukofoti bilan taqdirlash;**



Faoliyatini samarali tashkil etayotgan, o‘zining shaxsiy fazilatlari bilan yoshlarga namuna bo‘layotgan va ularga yetakchilik qilayotgan mahalladagi yoshlar yetakchilarini **“Yangi O‘zbekiston islohotchisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash;**



Jamg‘armaning daromadlar va xarajatlar smetasi **kelgusi yilda kelib tushishi kutilayotgan mablag‘lar prognozi va amalga oshirilishi belgilangan tadbirlarni o‘tkazishdan kelib chiqqan holda** tuziladi.

JAMG'ARMA MABLAG'LARIDAN FOYDALANILISHI YUZASIDAN HISOBOTLAR TAQDIM ETISH, NAZORAT VA JAVOBGARLIK




Agentlik, uning hududiy bo'linmalari va Institut belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga **Jamg'arma mablag'larining ishlatilishi to'g'risida har chorakda tegishli hisobotlarni taqdim etib boradi.**



Jamg'arma mablag'larining hisobi va hisoboti **qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yuritiladi va taqdim etiladi.**



Jamg'arma mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanilishini nazorat qilish **qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.**



YAKUNIY QOIDALAR

BU MUHIM



Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Jamg'arma mablag'laridan to'g'ri va maqsadli foydalanish yuzasidan javobgarlik **Agentlik, uning hududiy bo'linmalari va Institutga yuklatiladi.**

[illegible]